

**IKKINCHI JAHON URISHIDA O'ZBEKLARNING VATAN HIMOYASI UCHUN
QO'SHGAN HISSASI**

**ВКЛАД УЗБЕКОВ В ЗАЩИТУ РОДИНЫ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ
ВОЙНЫ**

**THE CONTRIBUTION OF UZBEKS TO THE DEFENSE OF THE
MOTHERLAND DURING WORLD WAR II**

Ro'zimov Umidjon Zaripboy o'g'li

Urganch Davlat Universiteti "Ijtimoiy – Iqtisodiy fanlar
fakulteti" Tarix yo'nalishi 233-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchiji jahon urushi davrida o'zbek xalqining Vatan himoyasi yo'lidagi fidokorona xizmati yoritiladi. Qahramon jangchilarining frontdagagi jasorati, front orti mehnatkashlarining tinimsiz mehnati va madaniyat arboblarining ma'naviy ko'tarinkilik yaratishdagi o'rni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, urush davrida O'zbekiston hududining strategik ahamiyati ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Ikkinchiji jahon urushi, O'zbekiston, Vatan himoyasi, front, front orti, qahramonlar, mehnat, jasorat.

Аннотация: В данной статье освещается самоотверженная деятельность узбекского народа в годы Великой Отечественной войны ради защиты Родины. На основе исторических источников анализируются героизм воинов на фронте, неустанный труд тружеников тыла и роль деятелей культуры в создании духовного

подъёма. Также изучается стратегическое значение территории Узбекистана в военный период.

Ключевые слова: Великая Отечественная война, Узбекистан, защита Родины, фронт, тыл, герои, труд, мужество.

Abstract: This article highlights the selfless contribution of the Uzbek people during World War II in defending their homeland. Based on historical sources, it analyzes the heroism of soldiers on the front lines, the tireless labor of home front workers, and the role of cultural figures in fostering morale. The strategic importance of Uzbekistan's territory during the war is also examined.

Keywords: World War II, Uzbekistan, defense of the homeland, front, home front, heroes, labor, courage.

KIRISH. Ikkinci jahon urushi insoniyat tarixidagi eng dahshatli va qonli mojarob bo'ldi. Bu urush dunyoning 60 dan ortiq davlatini, milliardlab inson taqdirini o'z ichiga olib, millionlab qurbanlar, vayron shaharlar va ko'zga ko'rinas jarohatlar qoldirdi. Bu qiyin davrda O'zbekiston xalqi, o'zining bebafo fidoyiligi va mardona ruhi bilan Vatan himoyasiga katta hissa qo'shdi. Urush boshlanganda O'zbekiston hududi frontdan uzoqda bo'lishiga qaramay, bu yer frontning ishchonchli tayanchiga aylandi. Minglab o'zbek yigitlari front chizig'ida mardona jang qildi, minglab ayollar va bolalar esa orqa frontda ishlab, g'alabaga o'z hissasini qo'shdi. Frontga oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslahan yetkazildi, yarador askarlar uchun shifoxonalar ochildi, evakuatsiya qilingan zavodlar va fabrikalar qayta ishga tushirildi.[2] O'zbekiston xalqi o'zining birlik, sabr-toqat va fidoyiligi bilan bu qiyin sinovdan o'tdi. Bu nafaqat urushdagi g'alabaga hissa bo'ldi, balki butun bir xalqning mardlik, sabr va Vatanga sadoqat timsoli sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ikkinci jahon urushi davrida O'zbekiston xalqining front va orqa frontdagi faoliyati ko'plab tarixiy asarlar va ilmiy

tadqiqotlarda keng yoritilgan. M. Ismoilov (2005) o‘z tadqiqotida urush yillarida O‘zbekistondan 1,5 milliondan ortiq kishi frontga safarbar qilinganini qayd etadi. Ularning 430 mingdan ziyodi urush maydonida halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan.[4] T. Alimov (2010) o‘z asarida O‘zbekiston orqa frontning asosiy tayanchlaridan biri sifatida harbiy texnika, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur resurslarni frontga yetkazishda katta hissa qo‘sghanini ta’kidlaydi. Xususan, 200 dan ortiq zavod va fabrikalar front ehtiyojiga moslashtirilib qayta ishga tushirilgan.[5] Sh. Raximova (2018) arxiv hujjatlariga tayanib, O‘zbekiston hududiga 1 milliondan ortiq evakuatsiya qilingan aholi, jumladan, ko‘plab olimlar, yozuvchilar, aktyorlar va sanoat ishchilari joylashtirilganini keltiradi. Bu jarayon mamlakat madaniy va ilmiy hayotini ham sezilarli darajada boyitgan.[1] Rossiyalik tarixchi A. Shubin (2015) esa Ikkinci jahon urushidagi O‘zbekiston jangchilarining frontdagi jasoratini alohida ta’kidlab, Sobir Raximov kabi mashhur qo‘mondonlar va O‘zbekistonlik qahramonlarning harbiy operatsiyalardagi rolini batafsil tasvirlaydi. Shuningdek, xalqaro manbalarda (Roberts, 2011; Reese, 2000) urushning umumiyoqimida SSSR tarkibidagi millatlar, jumladan, o‘zbeklarning o‘rnini va hissasi haqida aniq statistik va voqeiy dalillar keltiriladi.[3]

Metodlar

Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlarga asoslandi:

1. Tarixiy-huquqiy tahlil metodi – O‘zbekistonning Ikkinci jahon urushidagi ishtiroki bo‘yicha davlat arxivlari, qonun hujjatlari va hukumat qarorlari o‘rganildi.
2. Statistik tahlil – Safarbar etilganlar soni, orqa frontdagi ishlab chiqarish hajmi, evakuatsiya qilingan aholi statistikasi, qurbanlar soni kabi aniq raqamlar yig‘ilib, tizimlashtirildi.
3. Manbashunoslik metodi – Urush davridagi gazeta va jurnal maqolalari, front xatlar, memuarlar, arxiv fotosuratlaridan foydalanildi.
4. Qiyyosiy tahlil metodi – O‘zbekistonning urushdagi hissasi SSSRning boshqa respublikalari bilan taqqoslanib, o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi.

5. Og‘zaki tarix (oral history) metodi – Urush qatnashchilari va ularning avlodlari bilan olib borilgan suhbatlar orqali voqealarning jonli guvohliklari yig‘ildi.
6. Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil – Urush yillarida O‘zbekiston iqtisodiyoti, qishloq xo‘jaligi va sanoatining front ehtiyojlariga moslashuvi o‘rganildi.

Bu metodlar yordamida mavzu bo‘yicha keng qamrovli, aniq raqamlar va tarixiy faktlarga tayangan ilmiy xulosa chiqarish imkoniyati yaratildi.

XULOSA. Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixida eng og‘ir sinovlardan biri bo‘ldi. Bu sinovdan o‘tishda O‘zbekiston xalqi o‘zining jasorati, fidoyiligi va Vatanga sadoqati bilan tarixda o‘chmas iz qoldirdi. 1,5 milliondan ortiq o‘zbek yigitlari frontga jo‘natilib, g‘alaba uchun jonini tikdi. Minglab ayollar va bolalar orqa frontda kecha-yu kunduz mehnat qilib, urushning g‘alabasi sari muhim hissa qo‘shti. O‘zbekiston nafaqat o‘z farzandlarini frontga yubordi, balki yuz minglab evakuatsiya qilingan aholini bag‘riga oldi. Ularning orasida olimlar, yozuvchilar, san’atkorlar bo‘lib, bu jarayon mamlakatning ilmiy va madaniy salohiyatini ham oshirdi. Bu tarix bizga bir narsani aniq ko‘rsatdi — xalqning birligi va fidoyiligi eng og‘ir davrlarda ham g‘alaba kalitidir. O‘zbekiston xalqining urush yillaridagi mardlik sahifalari kelajak avlodlar uchun ibrat bo‘lib qoladi. Biz bu xotirani asrash va ularni unutmaslik orqali o‘z tariximizga sodiq qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ismoilov, M. (2005). O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida. Toshkent: Yangi Asr Avlod. (23-b)
2. Alimov, T. (2010). Orqa frontning mehnat fronti. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (15-b)
3. Raximova, Sh. (2018). Evakuatsiya va madaniy hayot O‘zbekistonda (1941–1945). Toshkent: Fan va Texnologiya.(34-b)
4. Reese, R. (2000). Why Stalin’s Soldiers Fought. Kansas: University Press of Kansas.(75-b)
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. (1941–1945). Urush yillari hujjatlari to‘plami. Toshkent. (44-b)